

## **Birlashgan millatlar tashkiloti iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamentining elektron xukumat bo'yicha katta xududlararo maslahatchisi Richard Kerbi bilan uchrashuv.**

O'zbekiston "Aloqa tarixi muzeyi"da Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Davlat test markazi rahbariyati hamda O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamkorligida Birlashgan millatlar tashkiloti iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamentining elektron xukumat bo'yicha katta xududlararo maslahatchisi Richard Kerbi bilan davra suhbatini o'tkazildi.

Davra suhbatida janob Richard Kerbi O'zbekistonda elektron xukumat tizimini rivojlantirish masalalariga to'xtalar ekan, jumladan ta'lim tizimiga ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, interaktiv davlat xizmatlarini ko'rsatish samaradorligi oshirish, davlat organlari veb-saytlari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar turini kengaytirish, ochiq ma'lumotlar to'plamlarini joylashtirish bo'yicha o'z fikrlarini bildirdi.

O'z navbatida Davlat test markazi direktori o'rinbosari K.Xakberdiyev markaz rasmiy veb-sayti orqali abituriyentlar uchun ko'rsatilayotgan interaktiv xizmatlar va 2013-2015 yillarda oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan test sinovlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlarga to'xtalar ekan, kelajakdagi axborot-kommunikatsiya sohasidagi amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan loyihalar haqida axborot berdi.

Davra suhbatini samimiy va o'zaro savol javoblar tarzida o'tkazildi.